O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [14]
ISSN 2181-7324(Print)

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 81’37:811.111:811.512.133

Saidaxon MAMATKULOVA,
PhD, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent, O‘zbekiston.
E-mail: mamatkulovasaida73@gmail.com, ORCID: 0009-0000-1341-151X

ADChTI dotsenti,PhD, S. Abduqaxxorov taqrizi asosida

THE EVALUATING INSTANCE OF THE CONCEPT VIJDON / CONSCIENCE IN ENGLISH AND UZBEK: METAPHORS OF INNER CONTROL AND THE CONCEPTOSPHERE

Abstract

The article asks whose gaze conscience and the related moral notions represent in English and Uzbek. The data come from dictionaries and two fiction subcorpora compiled by the author (Uzbek 1,278,225 words, English 1,019,718 words). The analysis combines the mutual definability of dictionary entries, corpus frequency and conceptual metaphor theory. Fourteen metaphorical models of conscience were identified: 4 isomorphic, 4 allomorphic, 2 lacuna candidates and 4 open. The models of court, voice, burden and sleep are lexicalized in English but occur only in Uzbek discourse. The evaluating instance is shown to be an inner judge and a person’s word in English, and the gaze of the community and God in Uzbek.

Key words: conscience, vijdon, conceptosphere, evaluating instance, inner control, conceptual metaphor, lexicalization, shame, linguoculturology.

ОЦЕНОЧНАЯ ИНСТАНЦИЯ КОНЦЕПТА VIJDON / CONSCIENCE В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ: МЕТАФОРИКА ВНУТРЕННЕГО КОНТРОЛЯ И КОНЦЕПТОСФЕРА

Аннотация

В статье рассматривается, чьим взглядом представлены совесть и смежные с ней нравственные понятия в английском и узбекском языках. Материалом послужили словари и два художественных подкорпуса, составленных автором (узбекский 1 278 225 словоупотреблений, английский 1 019 718). Применены анализ взаимной толкуемости словарных дефиниций, частотный анализ и теория концептуальной метафоры. Выделено 14 метафорических моделей совести: 4 изоморфные, 4 алломорфные, 2 кандидата в лакуны, 4 открытые. Модели суда, голоса, ноши и сна лексикализованы в английском языке, в узбекском встречаются только в речи. Показано, что в английском языке оценочной инстанцией выступают внутренний судья и слово личности, в узбекском – взгляд общины и Бог.

Ключевые слова: совесть, conscience, концептосфера, оценочная инстанция, внутренний контроль, концептуальная метафора, лексикализация, стыд, лингвокультурология.

ICHKI HAKAMMI YOKI JAMOA NAZARIMI: INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA VIJDON KONSEPTINING BAHOLOVCHI INSTANSIYASI VA ICHKI NAZORAT METAFORIKASI

Annotatsiya

Maqolada ingliz va o‘zbek tillarida vijdon va unga yaqin axloqiy tushunchalar kimning nazari sifatida tasavvur qilinishi o‘rganiladi. Material lug‘atlardan hamda muallif tuzgan ikki badiiy to‘plamdan (o‘zbek 1 278 225, ingliz 1 019 718 so‘z) olingan. Tahlilda lug‘aviy ta’riflarning o‘zaro izohlanishi, korpus chastotasi va kognitiv metafora nazariyasi qo‘llanildi. Vijdon metaforikasida 14 model ajratildi: 4 tasi izomorf, 4 tasi allomorf, 2 tasi lakuna nomzodi, 4 tasi ochiq. Sud, ovoz, yuk va uyqu modellari ingliz tilida lug‘atga kirgan, o‘zbek tilida esa faqat nutqda uchraydi. Ingliz tilida baholovchi instansiya ichki hakam va shaxsning so‘zi, o‘zbek tilida esa jamoa nazari va Xudo ekani asoslanadi.

Kalit so‘zlar: vijdon, conscience, konseptosfera, baholovchi instansiya, ichki nazorat, konseptual metafora, leksikallashuv, uyat, lingvomadaniyat.

Kirish. Vijdon haqida gapirganda biz odatda uni insonning ichidagi ovoz deb o‘ylaymiz. I. Kant vijdonni “сознание внутреннего судилища в человеке” deb ta’riflagan va inson ichida uni doim kuzatib turadigan hakam borligini aytgan [1]. Biroq tilning o‘zi bu hakamni hamma joyda bir xil qurmaydi: ba’zi tillarda hukmni shaxsning ichidagi sud chiqaradi, boshqalarida esa atrofdagilar – oila, mahalla, el. Vijdon yonida uyat, or-nomus, insof, hayo kabi tushunchalar turadi; bu majmua konseptosfera deb ataladi.

Maqolaning maqsadi vijdon konseptining baholovchi instansiyasini, ya’ni axloqiy hukm kimning nomidan chiqarilishini ikki tilda aniqlashdan iborat. Farazimizga ko‘ra, ingliz tilida instansiya shaxsning ichida joylashgan va huquqiy obrazlar orqali tizimli ifodalangan, o‘zbek tilida esa u tashqarida, jamoa nazarida turadi va metaforalari asosan nutq darajasida qoladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. M.V. Pimenova совесть va conscience so‘zlarining huquqiy metaforalarini ko‘rib chiqib, sud, qonun, guvoh obrazlarining manbasini Bibliya matniga olib borgan va conscience bilan consciousness bir o‘zakdan ekanini qayd etgan [2]. E. Veremchuk ingliz aforizmlarida shaxs, sud, ovoz va narsa modellarini ajratib, sud freymida hakam, ayblovchi va guvoh rollarini farqlagan [3]. Yu.S. Stepanov hamda O.V. Zagorovskaya va I.S. Shevchenko rus vijdonining tarixiy qatlamlarini yoritib, sovet davri lug‘atlarida diniy qatlam tushib qolganini ko‘rsatgan [1; 4]. O‘zbek tilshunosligida vijdon metaforalari [5] va inglizcha frazeologizmlari [6] o‘rganilgan, biroq ikki til materiali bir mezon bilan solishtirilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘zbek tomonida izohli [7], etimologik [8] va frazeologik [9] lug‘atlar hamda maqollar to‘plami [10], ingliz tomonida A.V. Kuninning frazeologik

lug‘ati [11], idiomalar [12] va maqollar [13] lug‘atlari ishlatildi. Badiiy material muallif tuzgan ikki to‘plamdan olindi: o‘zbek to‘plami (1 278 225 so‘z) XX–XXI asr nasridan, ingliz to‘plami (1 019 718 so‘z) asosan XIX asr nasridan, jumladan H. Melville [14], J. Austen [15] va M. Edgeworth [16] asarlaridan tuzildi. Konseptosferani ajratishda lug‘aviy ta’riflarning o‘zaro izohlanishi mezoni qo‘llanildi, chastota million so‘zga to‘g‘ri keladigan qo‘llanish (ppm) bilan berildi. Metaforik modellar leksikallashuv mezoni bilan baholandi: ikkala tilda lug‘atda qayd etilgan model – izomorf, bir tilda lug‘atda, ikkinchisida nutqda uchrasa – allomorf, bir tilda topilmasa – lakuna nomzodi, dalili yetarli bo‘lmasa – ochiq deb olindi. To‘plamlar janr va davr jihatidan teng emas, shuning uchun chastotalar faqat yo‘nalishni ko‘rsatadi.

Tahlil va natijalar. Lug‘at ta’rifidagi instansiya. O‘zbek izohli lug‘ati vijdonni “Kishining o‘z xatti-harakati, 1-jadval.

Konseptosfera va uning zichligi. O‘zbek lug‘atida vijdon boshqa tushunchalar bilan to‘r hosil qiladi: diyonat “vijdon, vijdonlilik, insof” [7], insof “adolat, vijdon” [7], nomus “oriyat, diyonat, vijdon” [7] orqali izohlanadi. Iymon bilan bog‘lanish Vijdonsiz – imonsiz maqolida saqlangan [10]. Natijada o‘zbek tomonida olti tushunchali zanjir paydo bo‘ladi. Ingliz tomonida conscience, honesty, honour, shame, faith va guilt bunday zanjir hosil qilmaydi, guilt esa frazeologik lug‘atda bosh so‘z sifatida yo‘q [11]. Chastota ko‘rsatkichlari 1-jadvalda berilgan.

Vijdon konseptosferasining ikki badiiy to‘plamdagi chastotasi (ot shakllari, ppm)

O‘zbek tushuncha	ppm	Ingliz muvofiq	ppm
uyat	79,8	shame	53,9 (ashamed 80,4)
insof	75,1	honesty	30,4
iymon	66,5	faith	57,9
or, oriyat / nomus	44,6 / 39,9	honour	196,1
vijdon	25,0	conscience	58,8
hayo	23,5	muvofiq yo‘q	–
diyonat	4,7	muvofiq yo‘q	–
muvofiq yo‘q	–	guilt	23,5 (guilty 29,4)

Manba: muallif tuzgan badiiy to‘plamlar asosida hisoblangan.

O‘zbek to‘plamida uyat vijdondan uch baravardan ko‘proq zich uchraydi, ingliz to‘plamida shame conscience bilan deyarli teng, ashamed qo‘shilsa esa undan oldinga chiqadi. Demak, farqni miqdordan emas, uyatning kimga tegishli ekanidan izlash kerak.

Ichki nazorat metaforalari. Ingliz tilida vijdonning huquqiy obrazi lug‘at, maqol va nutqda bir vaqtda mavjud: A guilty conscience needs no accuser [13], a guilty conscience is a self-accuser [11]; Austen qahramoni “moments of self-examination in which her conscience could not quite acquit her” holatini boshdan kechiradi [15], still small voice birligi esa vijdon ovozini anglatadi [12]. O‘zbek to‘plamida sud so‘zi vijdon bilan birga kelmaydi: vijdon unda buyruq beradi va gapiradi. Yuk (lie heavy on one’s conscience [11]) va uyqu (A clean conscience is a good pillow [13]) modellari ham ingliz tilida lug‘atga kirgan, o‘zbek tilida esa faqat nutqda uchraydi. Shu sababli sud, ovoz, yuk va uyqu modellari allomorf deb baholandi.

Og‘riq, kemiruvchi jonzot, poklik va mulk modellari ikki tilda ham leksikallashgan: the pangs (worm) of conscience, a clear conscience [11], conscience money [11] hamda vijdon azobi, sof vijdonli, vijdonni yutmoq [7], Tekinxo‘r vijdonidan kechar [10]. Biroq ingliz tilida vijdon bilan bitim tuziladi, o‘zbek tilida esa u yutiladi va sotiladi.

Ikki model faqat o‘zbek nutqida topildi. Birinchisida vijdon atrofdagi odamlarga ko‘chadi: O‘. Umarbekovda “tong odamlarning nazari, vijdoni, odamlarga qarolmaydi endi” – vijdon atrofdagilarning nazari bilan tenglashadi. Ikkinchisida vijdon egasi vafot etgach ham yashaydi: T. Malik qissasida “Odam o‘lsa vijdoni ham qo‘shilib o‘ladi, deb o‘ylaysanmi?” degan savol jamoaviy bahsni boshlaydi [17]. Jami 14 model ajratildi: 4 tasi izomorf (jonzot, og‘riq, poklik, mulk), 4 tasi allomorf (sud, ovoz, yuk, uyqu), 2 tasi lakuna nomzodi (odam va so‘z, o‘lmas mavjudot), 4 tasi ochiq (tarozi, kema, kompas, ko‘zgu).

Uyat va nomusning egasi. O‘zbek nutqida nomus shaxsniki emas, oila va elniki (“oila nomusi uchun... jon qilmishi, yurish-turishi uchun odamlar, jamoatchilik oldidagi mas’uliyat hissi...” deb ta’riflaydi [7]. Etimologik lug‘atga ko‘ra, arabcha vijdon sezish ma’nosidagi fe’ldan yasalgan, o‘zbek tiliga esa faqat “or-nomus” ma’nosi bilan o‘tgan [8]. Demak, ichki sezgi o‘zbek tilida jamoa oldidagi javobgarlikka aylangan. Ingliz tilida esa hukm ichkarida chiqariladi [2].

kuydirib” – O. Yoqubov), uyatning tipik formulasi esa shaxssiz aytiladi: Cho‘lponning “Xo‘p, deng! Katta odam, uyat bo‘ladi” jumlasida kimga uyat bo‘lishi aytilmaydi. Ingliz tilida For shame! undovi o‘tib bo‘lgan harakatga va aniq adresatga qaratiladi [11], Edgeworthda esa ko‘pchilik uyatni yengadi [16]. Ingliz qasamida kafil shaxsning so‘zi (“Upon my word and honour”), o‘zbek qasamida esa Xudo (“Xudo haqqi!”).

Muhokama. Natijalar farazni tasdiqlaydi: ingliz tilida vijdon ichki instansiya sifatida tizimli metaforalashgan [2]. Bitim, tovon puli va sharafni garovga qo‘yish esa uning shartnomaviy tomonini ochadi. O‘zbek tilida instansiya tashqarida va u ikkita: jamoa nazari (lug‘at ta’rifidagi “jamoatchilik oldidagi” mas’uliyat, shaxssiz “uyat bo‘ladi” formulasi, oila nomusi) va Xudo (vijdon – iymon juftligi, Xudo nomi bilan qasam). O‘zbek ichki nazorat metaforalarining asosan nutqda qolishini konseptosfera tuzilishi bilan izohlash mumkin: axloqiy tushunchalar bir-biri orqali izohlanadi va maqol bilan mustahkamlanadi, frazeologik lug‘atda esa vijdon bilan bitta ham bosh ibora yo‘q [9].

Xulosa va takliflar.

1. Ingliz tilida hukmni shaxsning ichidagi hakam va shaxs bergan so‘z chiqaradi, o‘zbek tilida esa jamoa nazari va Xudo. Bu farq lug‘at ta’rifida, konseptosfera tuzilishida va nutq formulalarida takrorlanadi.

2. Ajratilgan 14 modeldan 4 tasi izomorf, 4 tasi allomorf, 2 tasi lakuna nomzodi, 4 tasi ochiq. Instansiyani bevosita ifodalovchi sud, ovoz, yuk va uyqu modellari inglizcha lug‘atlarga kirgan, o‘zbek tilida esa faqat yozuvchilar nutqida uchraydi.

3. O‘zbek konseptosferasi bir-birini izohlaydigan olti tushunchali zanjir bo‘lib, paremiyaga tayanadi, ingliz konseptosferasi esa mustaqil frazeologik uyalardan tashkil topgan. Keyingi tadqiqotlarda kattaroq korpus va assotsiativ eksperiment orqali lakuna nomzodlari va ochiq modellarni tekshirish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR

1. Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. Опыт исследования. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1997.
2. Пименова М.В. Развитие правовых метафор совести в русском и английском языках // Вестник Воронежского государственного университета. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. – 2009. – № 2. – С. 96–100.
3. Veremchuk E. What is Conscience? Some Ontological Metaphors in the English-Language Aphorisms // Slavia Centralis. – 2023. – Vol. 16, № 2. – P. 142–153. – DOI: 10.18690/scn.16.2.142-153.2023.
4. Загоровская О.В., Шевченко И.С. Семантическая многоплановость слова “совесть” в русском языке и русской духовной культуре // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Тамбов: Грамота, 2014. – № 10 (40), ч. II.
5. O‘rinova S.X. Vijdon konseptining lingvomadaniy va kognitiv tadqiqi // “Pedagogik ta’lim va tarbiya transformatsiyasida fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarning konseptual asoslari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. – 2026. – B. 629–630. – DOI: 10.5281/zenodo.21200997.
6. Raximova Sh.Sh., Xojibayev O.R. Zamonaviy ingliz tilida vijdon tushunchasini ifodalovchi frazeologik vositalar // Ilm-fan yangiliklari konferensiyasi. – Andijon, 2026. – B. 822–826.
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 5 jildli. I–V jildlar. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006–2008.
8. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. II: Arab so‘zlari va ular bilan hosilalar. – Toshkent: Universitet, 2003. – 600 b.
9. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978. – 405 b.
10. O‘zbek xalq maqollari / Tuzuvchilar: T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov; mas’ul muharrir Sh. Turdimov. – Toshkent: Sharq, 2005. – 512 b.
11. Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь. – 4-е изд. – М.: Русский язык, 1984. – 944 с.
12. Ayto J. (ed.) Oxford Dictionary of English Idioms. – 4th ed. – Oxford: Oxford University Press, 2020.
13. Speake J. (ed.) The Oxford Dictionary of Proverbs. – 6th ed. – Oxford: Oxford University Press, 2015.
14. Melville H. Moby-Dick; or, The Whale. – Project Gutenberg (elektron nashr).
15. Austen J. Emma. – Project Gutenberg (elektron nashr).
16. Edgeworth M. The Parent’s Assistant. – Project Gutenberg (elektron nashr, #3655).
17. Malik T. Xazonrezgi (qissa) // ziyouz.uz elektron kutubxonasi (murojaat sanasi: 30.09.2026).